

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik mas'uliyati

Har qanday o'quv va ish jarayoniga tayyorgarlik yangi kuch, yangi imkoniyat va rejalarini hisobga olish asnosida maqsad va vazifalarni belgilashni taqozo etadi. Bu esa har bir professor o'qituvchidan tortib, ta'lif muassasasi jamoasi a'zolarining har biriga o'z kasbi nuqtai nazaridan mas'uliyat yuklashi tayin. Xuddi shu maqsadda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektorat a'zolari va barcha kafedra mudirlari ishtirokida joriy yilning 11 avgust kuni soat 11:00 da institut rektoratining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishi Zoom dasturi orqali videokonferentsiya shaklida o'tkazildi. Videokonferentsiyani institut rektori, professor Umurzakov O'ktam Pardayevich o'zlarining kirish so'zlari bilan ochib moderator sifatida boshqarib bordilar.



Kun tartibida ko'rilgan masalalarning asosiysi Yangi 2020-2021 o'quv yiliga tayyorgarlik holati va amalga oshiriladigan vazifalar haqida bo'ldi. Shu xususda institutning birinchi prorektori Mirzaev Bahodir Suyunovich taqdimot dasturi asosida ma'ruza qildi. So'ngra ma'ruza yuzasidan savol-javoblarga o'tildi. Shtat birligi, o'quv soatlari, onlayn tarzdagi videoderslar kabi masalalar borasida tug'ilgan muammolar yuzasidan konkret yechimlar va mulohazalar bildirildi. Rektorat a'zolari va barcha kafedra mudirlari mazkur yig'ilishda o'z fikr-mulohazalari bilan faol ishtirok etishdi. Kengaytirilgan onlayn yig'ilish Zoom dasturi orqali talabga muvofiq tarzda o'tkazildi.



TIQXMMI Matbuot xizmati